

# OLIV TA'LIM MUASSASALARI BAKALAVRIATIGA KIRISH TEST SINOVLARIDA TARIX FANIDAN FOYDALANILADIGAN TEST VARIANTI TAFSILOTI

## 1. Test variantining qo'llanish maqsadi

Tarix fanidan test topshiriqlari O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga kirish test sinovlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari hamda faniga oid umumta'lim o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma, malaka talablari asosida abituriyentlarning tayyorgarlik darajasini aniqlab berish uchun mo'ljallangan.

## 2. Test variantini shakllantirishda asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar

Tarix fanidan test topshiriqlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 2017-yil 6-apreldagi 187-son qaroriga muvofiq amaldagi davlat ta'lim standarti, tarix faniga oid umumta'lim o'quv dasturlariga, ta'limning vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tavsiya etilgan va umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida amalda qo'llanilayotgan darsliklar va o'quv qo'llanmalariga tayangan holda shakllantiriladi.

## 3. Tarix fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi

Tarix fanidan **mutaxassislik fani sifatida** shakllantiriladigan test topshiriqlari varianti 30 ta test topshirig'idan iborat bo'lib, har bir to'g'ri javob uchun 3,1 ball belgilangan.

№	Bo'limlar	Test topshiriqlari soni	Ball	Topshiriq shakli
1.	Siyosiy	18	55,8	yopiq test topshiriqlari
2.	Ijtimoiy-iqtisodiy	4	12,4	yopiq test topshiriqlari
3.	Mamlakatlar madaniyati	4	12,4	yopiq test topshiriqlari
4.	Amaliy topshiriqlar	4	12,4	xarita, jadvallar, diagrammalar ko'rinishidagi yopiq test topshiriqlari
	Jami	30	93	

O'zbekiston tarixi fanidan **majburiy fan sifatida** shakllantiriladigan test topshiriqlari varianti 15 ta test topshirig'idan iborat bo'lib, har bir to'g'ri javob uchun 2,1 ball belgilangan.

№	Bo'limlar	Test topshiriqlari soni	Ball	Topshiriq shakli
1.	Qadimgi davr	2	4,2	yopiq test topshiriqlari
2.	O'rta asrlar (IV asrdan XVI asrgacha)	4	8,4	yopiq test topshiriqlari
3.	Uch xonliklar davri (XVI asrdan XIX asr o'rtalarigacha)	4	8,4	yopiq test topshiriqlari
4.	Chor Rossiyasi bosqini davri (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)	3	6,3	yopiq test topshiriqlari
5.	Sovet davri (1917-1991-yillar)	1	2,1	yopiq test topshirig'i

6.	Mustaqillik davri	1	2,1	yopiq test topshirig'i
	Jami	15	31,5	

**4. Test sinovida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi**  
(Mutaxassislik)

Kodi	Fan mazmuni tarkibi
	1. Siyosiy tarix
1.1	<b>Qadimgi Sharq.</b> Nil vodiysi va uning aholisi. Qadimgi Misr. Mesopotamiya sivilizatsiyalari. Babil podsholigi va Yangi Babil podsholigi. Old Osiyo davlatlari. Ahamoniylar davlati. Hindiston sivilizatsiyasi. Xitoy sivilizatsiyasi.
1.2	<b>Qadimgi Yunoniston va Rim.</b> Antik tarixning boshlanishi. Qadimgi Yunonistonning yuksalishi va Buyuk yunon koloniyalashtirishi. Afinada demokratiya. Yunon-fors urushlari va Yunonistonning Makedoniya tomonidan bosib olinishi. Italiya va uning aholisi. Rim Respublikasi. O'rtayer dengizida hukmronlik uchun kurash. Qullar va gladiatorlar. Rimda Respublikaning qulashi. Rim imperiyasining qulashi va zavolga yuz tutishi.
1.3	<b>Qadimgi O'rta Osiyo.</b> O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar. O'rta Osiyoda Ahamoniylar hukmronligi va O'rta Osiyo xalqlarining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi. Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi. Qadimgi Xorazm, Davan, Qang' davlati. Qadimgi Kushon davlati.
1.4	<b>Ilk o'rta asrlarda yerga egalik qilish munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi.</b> Ilk o'rta asrlarda Xorazm, Xioniylar, Kidariylar, Eftallar davlatlari. O'rta Osiyo xalqlari Turk xoqonligi davrida. G'arbiy Turk xoqonligi. Mahalliy hokimliklarning tashkil topishi.
1.5	<b>Arab xalifaligi davrida Movarounnahr.</b> Movarounnahrda arab xalifaligining o'rnatilishi. Xalifalikka qarshi xalq noroziligi. Abbosiylar davrida Xuroson va Movarounnahr.
1.6	<b>Movarounnahrda mustaqil davlatlarning vujudga kelishi.</b> Mustaqil davlatlarning shakllana boshlashi. Qarluqlar, o'g'uzlar, tohiriylar. Somoniylar. G'aznaviylar. Qoraxoniylar. Xorazm davlati va uning yuksalishi. Xorazmshoh va Chingizxon munosabatlari. Muhammad Xorazmshohning mamlakat mudofaasiga oid tadbirlari va uning oqibati. Jaloliddin Manguberding Xorazm taxtiga o'tirishi. Jaloliddin Manguberdi – mohir sarkarda. Chig'atoy ulusining tashkil topishi.
1.7	<b>Amir Temur va temuriylar davri.</b> XIV asrning o'rtalarida Movarounnahrda siyosiy vaziyat. Amir Temur – markazlashgan davlat asoschisi. Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi va harbiy tizim. Amir Temurning tashqi siyosati. Temuriylar davridagi siyosiy jarayonlar. Mirzo Ulug'bekning hukmronligi davrida Movarounnahr. Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi.
1.8	<b>Ilk o'rta asrlarda Yevropa.</b> German qabilalari va Rim imperiyasi. Franklar. Franklar davlatining tashkil topishi. Franklar imperiyasi. Britaniyadan Angliyaga. Muqaddas Rim imperiyasi. Vizantiya: G'arb va Sharq orasida. Slavyanlar va ularda davlatlarning tashkil topishi. Sharqiy slavyanlar. Kiyev Rusi davlati.
1.9	<b>Ilk o'rta asrlarda Osiyo.</b> Arabiston ilk o'rta asrlar boshida. Arab xalifaligi. Hindiston. Xitoy.
1.10	<b>Yevropa rivojlangan o'rta asrlarda.</b> Yevropada o'rta asr shaharlarining vujudga kelishi va ularning boshqaruvi. O'rta asrlarda xristianlik. Salib yurishlari. Dastlabki va keyingi salib yurishlari. Fransiyada markazlashgan davlatning tashkil topishi. General shtatlar. Yuz yillik urushning boshlanishi va uning dastlabki davri.

	Fransiyada mutlaq monarxiya. Angliyada markazlashgan davlatning tashkil topishi. Angliya oʻrta asrlar soʻngida. Germaniya. Rus knyazliklari. Ruslarning bosqinchilarga qarshi kurashi. Rus knyazliklarida markazlashish jarayonlari.
1.11	<b>Osiyo, Amerika va Afrika xalqlari rivojlangan oʻrta asrlarda.</b> Saljuqiylar davlati. Usmonli turklar davlati. Moʻgʻullar davlati. Oltin Oʻrda xonligi. Xitoy. Yaponiya. Oʻrta asrlarda Koreya. Hindiston. Amerika oʻrta asrlarda. Afrika xalqlari oʻrta asrlarda.
1.12	<b>XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat.</b> Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyat. Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat. Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shayboniyxon munosabatlari. Movarounnahr va Xurosonda shayboniylar hukmronligining oʻrnatilishi.
1.13	<b>Buxoro xonligi va Buxoro amirligi.</b> Buxoro xonligining tashkil topishi. Abdullaxon II davrida Buxoro xonligining yuksalishi. Buxoro xonligida ashtarxoniyalar sulolasi hukmronligining oʻrnatilishi. Buxoro xonligida markaziy hokimiyatning zaiflashuvi. Buxoro xonligida davlat boshqaruvi. Buxoro xonligida harbiy ish. Buxoro xonligining tashqi siyosati. Buxoro amirligining tashkil topishi. Amirlikda markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi. Buxoro amirligida davlat boshqaruvi. Buxoro amirligida harbiy ish. Buxoro amirligining tashqi siyosati.
1.14	<b>Xiva xonligi.</b> Xiva xonligining tashkil topishi. XVII – XVIII asrning birinchi yarmida xonlikdagi siyosiy ahvol. Xiva xonligida qoʻngʻirotlar sulolasi hukmronligining oʻrnatilishi. XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida xonlikning siyosiy ahvoli. Xiva xonligida davlat boshqaruvi. Xiva xonligining tashqi siyosati. XVI – XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar.
1.15	<b>XVIII-XIX asrning birinchi yarmida Qoʻqon xonligi.</b> Qoʻqon xonligining tashkil topishi. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmida Qoʻqon xonligida siyosiy ahvol. Qoʻqon xonligida davlat boshqaruvi. Qoʻqon xonligida harbiy ish. Qoʻqon xonligining tashqi siyosati.
1.16	<b>XVI-XVIII asrlarda Yevropa va Amerika mamlakatlari.</b> Yevropada reformatsiya. Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi. XVII asrda Angliya burjua inqilobi. XVI – XVIII asrlarda xalqaro munosabatlar. Fransiyada mutlaq monarxiya. Buyuk fransuz burjua inqilobi. Buyuk fransuz burjua inqilobining yakunlanishi va tarixiy ahamiyati. XVI – XVIII asrlarda Germaniya imperiyasi. XVI – XVIII asrlarda Rossiya. XVIII asrda Shimoliy Amerika. Amerika Qoʻshma Shtatlarining tashkil topishi.
1.17	<b>XVI-XVIII asrlarda Osiyo va Afrika mamlakatlari.</b> XVI – XVIII asrlarda Xitoy, Hindiston, Yaponiya va Koreya, Usmoniylar imperiyasi, Eron, Afrika mamlakatlari.
1.18	<b>1800-1870-yillarda Yevropa va Amerika mamlakatlari.</b> 1800 – 1870-yillarda Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va Italiya, Rossiya, Amerika Qoʻshma Shtatlari. Lotin Amerikasi xalqlarining milliy-ozodlik kurashi.
1.19	<b>1800-1870-yillarda Osiyo va Afrika mamlakatlari.</b> 1800 – 1870-yillarda Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Koreya, Usmoniylar imperiyasi, Eron, Afgʻoniston va Afrika davlatlari.
1.20	<b>Gʻarbiy Yevropa, Amerika, Osiyo va Afrika davlatlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida.</b> XIX asr oxiri – XX asr boshlarida kapitalizm taraqqiyotida yuz bergan tub oʻzgarishlar. Fransiya-Prussiya urushi va uning yakunlari. Fransiyada Uchinchi Respublika va 1871-yil 18-mart davlat toʻntarishi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Fransiyaning ichki siyosati va tashqi siyosati. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Germaniya. Imperiyaning tashkil topishi. Imperiyaning ichki siyosati. Imperiyaning tashqi siyosati. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buyuk Britaniyaning siyosiy ahvoli. Buyuk Britaniyaning ichki siyosati. Buyuk Britaniyaning tashqi

	<p>siyosati. AQSh XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida. AQShning ichki siyosati. AQShning tashqi siyosati. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlari. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining siyosiy ahvoli. Rossiya imperiyasining tashqi siyosati. Rossiyada Davlat dumasining tashkil etilishi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Avstriya-Vengriya imperiyasi. Avstriya-Vengriya imperiyasining tashqi siyosati. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Italiya. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Bolqon davlatlari. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yaponiya. XIX asrning oxirida Xitoy. XX asr boshlarida Xitoyning siyosiy ahvoli. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Hindiston. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Eron. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Afg‘oniston. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Usmonlilar davlati. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Shimoliy Afrika mamlakatlari. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Tropik va Janubiy Afrika mamlakatlari. Birinchi jahon urushining boshlanishi va borishi. 1916 – 1917-yillardagi urush harakatlari. Birinchi jahon urushining yakunlari va oqibatlari.</p>
1.21	<p><b>XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida O‘zbekiston tarixi.</b> XIX asr o‘rtalarida O‘rta Osiyo davlatlarining hududi va aholisi. XIX asr o‘rtalarida o‘zbek xonliklarining ma‘muriy boshqaruv tizimi. Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlarining boshlanishi. Toshkentning bosib olinishi. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi. Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlarning boshlanishi. Buxoro amirligi ustidan Rossiya imperiyasi protektoratining o‘rnatilishi. Xiva xonligi ustidan Rossiya imperiyasi protektoratining o‘rnatilishi. Qo‘qon xonligining bosib olinishi. Turkiston general-gubernatorligining siyosiy-ma‘muriy boshqaruv tizimi. Turkistonda sud tizimi va harbiy politsiya tartibotining o‘rnatilishi. Turkistonda milliy-ozodlik harakatlarining boshlanishi va uning sabablari. Toshkentda “Vabo isyoni”. Andijon qo‘zg‘oloni. Milliy-ozodlik harakatlarining ahamiyati. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi. Jadidlarning dasturiy maqsad va vazifalari. Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati. Birinchi jahon urushining boshlanishi va uning Turkistonga ta’siri. Turkistonda 1916-yilgi qo‘zg‘olonlarning boshlanishi. Jizzax qo‘zg‘oloni. Turkistonda 1916-yilgi voqealarning oqibatlari va ahamiyati. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining davlat tuzumi. Yosh buxoroliklar faoliyati va Buxoro amirligining tugatilishi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligining davlat tuzumi. Xiva xonligining tugatilishi.</p>
1.22	<p><b>O‘zbekiston tarixi 1917-1991-yillarda.</b> Turkiston o‘lkasi 1917-yil fevral-oktyabr oralig‘ida. Turkistonda sovet hokimiyatining majburiy tarzda o‘rnatilishi hamda bolsheviklar diktaturasi. Turkiston Muxtoriyati – tub yerli xalqlar davlatchiligi tarixida yangi bosqich. Turkiston o‘lkasida Sovet hokimiyati boshqaruv tizimining tuzilishi. Turkiston ASSRda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar. BXSRR va XXSRda qizil armiyaga qarshi kurash. Buxoro amirligida islohotlar uchun kurash hamda qizil armiya tomonidan amir hokimiyatining ag‘darilishi. BXSRRning tashkil topishi va faoliyati. Xiva xonligidagi ahvol hamda xon hokimiyatining ag‘darilishi. XXSRning tuzilishi va turli islohotlar. O‘rta Osiyo respublikalarida o‘tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish va uning oqibatlari. O‘zbekiston SSRning tashkil topishi. Sovet hokimiyatining O‘zbekistondagi qatag‘onlik siyosati: uning mohiyati va oqibatlari. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi hamda O‘zbekistonning urush girdobiga tortilishi. O‘zbekistonliklarning frontdagi jasorati va qahramonliklari. Ziyolilarning qatag‘on qilinishi va sovet jamiyatida shaxsga sig‘inishning fosh qilinishi. O‘zbekistonning siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar hamda Sovetlarning partiya organlariga qaramligi. O‘zbekistonda paxta ishi va uning oqibatlari. Qayta qurish siyosati va uning inqirozi. Farg‘ona fojialari. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.</p>

1.23	<p><b>Eng yangi tarix (1918 – 1939-yillar).</b> 1918 – 1939-yillarda xalqaro munosabatlar. 1918 – 1939-yillarda Buyuk Britaniya, Fransiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Germaniya, SSSR, Italiya va Ispaniya. 1918 – 1939-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari. 1918 – 1939-yillarda Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Turkiya va Eron. 1918 – 1939-yillarda Afrika mamlakatlari. Ikkinchi jahon urushi va uning yakunlari.</p>
1.24	<p><b>Eng yangi tarix (1946 – 1991-yillar).</b> Ikkinchi jahon urushidan keyingi xalqaro munosabatlar: “Sovuq urush”ning boshlanishi. 1946 – 1991-yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlari, Sovet Ittifoqi, Buyuk Britaniya va Fransiya, Germaniya va Italiya. 1946 – 1991-yillarda Yaponiya va Osiyoning yangi industrial mamlakatlari, Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Pokiston, Turkiya, Eron va Afg‘oniston. 1946-1991-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari. 1946 – 1991-yillarda Afrika mamlakatlari.</p>
1.25	<p><b>Eng yangi tarix (1991 – 2017-yillar).</b> XX asr oxiri – XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlar. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida demokratik inqiloblar va sotsialistik lagerning parchalanishi. Sovet davlatining parchalanishi va sobiq sovet respublikalarida mustaqillikning e‘lon qilinishi. 1991 – 2017-yillarda Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belarus, Moldova respublikalari, Boltiqbo‘yi davlatlari, Kavkazorti davlatlari va Markaziy Osiyo davlatlari. G‘arb mamlakatlarida integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashuvi. Yevropa Ittifoqi va AQSH munosabatlari. 1991 – 2017-yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlari, Germaniya Federativ Respublikasi, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari. 1991 – 2017-yillarda Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Hindiston Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Eron Islom Respublikasi, Pokiston, Afg‘oniston, Suriya, Iroq, Isroil davlati va Falastin muammosi. 1991 – 2017-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari. 1991 – 2017-yillarda Afrika mamlakatlari.</p>
1.26	<p><b>O‘zbekiston tarixi (milliy istiqlol davri).</b> O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining qo‘lga kiritilishi. O‘zbekiston Respublikasi milliy davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi. Fuqarolik jamiyati g‘oyasining rivojlanish tarixi. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishining asosiy bosqichlari va istiqbollari. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining shakllanishi va uning ustuvor yo‘nalishlari. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorligi. O‘zbekiston Respublikasining Rossiya, Xitoy va AQSH bilan o‘zaro munosabatlari. O‘zbekistonning Yaponiya, Hindiston va Koreya Respublikasi bilan ikki tomonlama aloqalarining rivojlanishi. O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasidagi faoliyati va tinchlikparvar tashqi siyosati. O‘zbekistonning mintaqaviy tashkilotlar doirasida ko‘p tomonlama hamkorligi.</p>
<p><b>2. Ijtimoiy-iqtisodiy tarix</b></p>	
2.1	<p><b>Qadimgi tarix taraqqiyotining boshlanishi.</b> Eng qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari. Urug‘chilik jamiyati. Eneolit va bronza davri. Temir davriga o‘tishda O‘rta Osiyoning rivojlanishi. Qadimgi Sharq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Qadimgi Yunoniston va Rim aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Qadimgi O‘rta Osiyo aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Qadimgi Xorazm, Qadimgi Davan, Qadimgi Qang‘, Qadimgi Kushon davlatining savdo aloqalari, aholining mashg‘ulotlari. Buyuk Ipak yo‘li.</p>

2.2	<b>O'rta asrlarda yerga egalik qilish munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi.</b> Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar. Ilk o'rta asrlar davlatlari: Xorazm, Xioniylar, Kidariylar va Eftallar, Turk xoqonligi va G'arbiy Turk xoqonligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Mahalliy hokimliklarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Movarounnahrda islom dinining yoyilishi. Abbosiylar davrida Xuroson va Movarounnahrda ijtmoiy-iqtisodiy hayot. Aholining mashg'ulotlari. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Qarluqlar, o'g'uzlar, tohiriylar davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Somoniylar, G'aznaviylar va Qoraxoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot, Xorazm davlati va uning yuksalishi. Chig'atoy ulusidagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, Etnik jarayonlar va o'zbek xalqining shakllanishi.
2.3	<b>Amir Temur va temuriylar davri.</b> XIV asrning o'rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat. Mirzo Ulug'bek boshqaruvi davrida Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va bunyodkorlik.
2.4	<b>O'rta asrlarda Osiyo, Amerika, Afrika va Yevropada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot.</b> Yevropada o'rta asr shaharlari. O'rta asrlarda tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi. Bozor va yarmarkalar. Osiyo mamlakatlarining o'rta asr shaharlari.
2.5	<b>XVI asr boshlari – XIX asr o'rtalarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.</b> XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat. XVI asrdan XIX asr o'rtalariga qadar Buxoro xonligi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo'qon xonliklarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
2.6	<b>Yevropada yangi davrning shakllanishi, XVI – XIX asrlarda Osiyo va Afrika mamlakatlari.</b> Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati. Yangi davr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida industrial jamiyatning shakllanishi. XVII asrda Angliya burjua inqilobi. Fransiya burjua inqilobi. XVI-XVIII asrlarda Germaniya imperiyasi. XVI – XVII asrlarda Rossiyadagi iqtisodiy vaziyat. Amerikadagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. XVI – XVIII asrlarda Osiyo mamlakatlarida ijtimoiy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlari. 1800 – 1870-yillarda Yevropa, Amerika, Osiyo va Afrika mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.
2.7	<b>Jahon davlatlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida.</b> XIX asr oxiri – XX asr boshlarida kapitalizm taraqqiyotida yuz bergan tub o'zgarishlar. Industrial sivilizatsiya. Fransiya-Prussiya urushi arafasida ikkala mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Fransiyada iqtisodiy va siyosiy hayot. Germaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Lotin Amerikasi davlatlari, Rossiya imperiyasi, Italiya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Usmonli davlati, Afg'oniston, Eron, Shimoliy Afrika, Tropik va Janubiy Afrika mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot, Avstriya-Vengriyaning iqtisodiy taraqqiyoti.
2.8	<b>XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida O'rta Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot.</b> Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasining yer-suv siyosati. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida qoraqalpoqlarning hududiy joylashuvi va ijtimoiy hayoti. Soliq va majburiyatlar. Xalq qo'zg'olonlari. Qoraqalpoqlar Turkiston general-gubernatorligi tarkibida. Jadidchilik harakatining Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri. Buxoro amirligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
2.9	<b>O'zbekiston tarixi 1917 – 1991-yillarda.</b> Turkiston o'lkasida Sovet hokimiyati boshqaruv tizimining tuzilishi va iqtisodiyot sohasidagi o'zgarishlar. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish siyosati hamda quloqlarning surgun qilinishi. O'zbekistonda industrlashtirish siyosatining amalga oshirilishi va kadrlar masalasi. O'zbek xotin-qizlarining ozodlikka chiqarish jarayoni va muammolar. O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi front xizmatida. O'zbekiston xalq xo'jaligining urushdan keyingi ahvoli. O'zbekistonda sanoatning bir tomonlama rivojlanishi. O'zbekistonda

	yoqilg'i va tog'-kon sanoatining vujudga keltirilishi hamda aholi milliy tarkibidagi o'zgarishlar. O'zbekistonda ekologik vaziyatning og'irlashuvi va Orol fojiasi.
2.10	<b>Eng yangi tarix (1918 – 1939-yillarda).</b> Buyuk Britaniya, Fransiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya, SSSR, Italiya, Ispaniya, Lotin Amerikasi mamlakatlari, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Turkiya, Eron va Afrika mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
2.11	<b>Eng yangi tarix (1945 – 1991-yillarda).</b> 1946 – 1991-yillarda Amerika Qo'shma Shtatlari, Sovet Ittifoqi, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya va Osiyoning yangi industrial mamlakatlari, Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Pokiston, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Lotin Amerikasi mamlakatlari va Afrika davlatlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
2.12	<b>Eng yangi tarix (1991 – 2017-yillarda).</b> Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belarus, Moldova Respublikalari, Boltiqbo'yi davlatlari, Kavkazorti davlatlari, Markaziy Osiyo davlatlari, Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya Federativ Respublikasi, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Hindiston Respublikasi, Eron Islom Respublikasi, Pokiston, Afg'oniston, Suriya, Iroq, Isroil, Falastin, Lotin Amerikasi mamlakatlari va Afrika mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida barqaror rivojlanish va etno-ijtimoiy muammolar.
2.13	<b>Mustaqillik davrida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.</b> O'zbek modelining ishlab chiqilishi. Iqtisodiy islohotlarning boshlanishi. Mamlakat ishlab chiqarish salohiyatining oshirilishi va jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi. Ijtimoiy siyosat va uning amalga oshirilish bosqichlari. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. Umumiy va o'rta maxsus ta'lim tizimi. Oliy ta'lim va undan keyingi ta'limning takomillashtirilishi. O'zbekistonda ilm-fan. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi. O'zbekistonda yoshlar siyosati.
<b>3. Mamlakatlar madaniyati</b>	
3.1	<b>Ibtidoiy jamoa tuzumi madaniyatlari.</b> Diniy e'tiqodlarning vujudga kelishi. Tasviriy san'atning vujudga kelishi. Jahondagi va O'rta Osiyodagi manzilgohlarning vujudga kelishi. Qadimgi Misr madaniyati. Qadimgi Mesopotamiya madaniyati. Old Osiyo va Ahamoniylar davlati madaniyati. Qadimgi Hindiston madaniyati. Qadimgi Xitoy madaniyati. Qadimgi Yunoniston madaniyati. Qadimgi Yunoniston olimlari va mutafakkirlari. Qadimgi Yunoniston afsonalari. Qadimgi Rim madaniyati.
3.2	<b>Qadimgi O'rta Osiyo madaniyati.</b> Miloddan avvalgi VII-V asrlarda madaniyat taraqqiyoti. Salavkiylar va Yunon-Baqtriya podsholigi davrida madaniyat. Qadimgi Xorazm, Qadimgi Davan, Qadimgi Qang' davlatlari davrida madaniyat. Kushon davlati davrida yozuv, diniy e'tiqodlar, me'morchilik va san'at. Zardushtiylik.
3.3	<b>O'rta Osiyoda o'rta asrlarda madaniy hayot.</b> Eftallar davrida madaniy hayot. VI – VII asrlarda madaniy hayot. Somoniylar davrida islom dini rivoji. G'aznaviylar va Qoraxoniylar davrida madaniy hayot. IX – XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayoti. Adabiyot. Diniy bilimlarning rivojlanishi. Me'morchilik.
3.4	<b>Amir Temur va temuriylar davri madaniyati.</b> Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni. Temuriylar davrida me'morchilik, ta'lim tizimi, aniq fanlar, adabiyot va tasviriy san'atning rivojlanishi.
3.5	<b>O'rta asrlarda Yevropa, Osiyo, Amerika va Afrika xalqlari madaniyati.</b> Ilk o'rta asrlarda Yevropa xalqlarining madaniyati. G'arbiy Yevropada me'morchilik, san'at va adabiyot. O'rta asrlarda Osiyo, Amerika va Afrika xalqlari madaniyati.

3.6	<b>O'рта Osiyoda uch xonliklar davrida madaniy hayot.</b> Buxoro xonligida madaniy hayot. Buxoro amirligida madaniy hayot. Xiva xonligida madaniy hayot. Xiva xonligi tarixi bo'yicha manbalar. Qoraqalpoqlarda madaniy va ma'naviy hayot. Qo'qon xonligida madaniy hayot. Qo'qon xonligida ta'lim.
3.7	<b>Yangi tarixning birinchi davrida jahon mamlakatlari madaniyati.</b> G'arbiy Yevropada yangi davr madaniyatining shakllanishi. Ma'rifat asri. Gumanizm va uning Yevropa madaniyatiga ta'siri. Turmush madaniyatidagi o'zgarishlar. XVI – XVIII asrlarda Yevropa, Amerika, Osiyo va Afrika mamlakatlarida madaniyat va san'at. 1800 – 1870-yillarda Yevropa, Amerika, Osiyo va Afrika mamlakatlarida adabiyot, san'at, arxitektura va fanning rivojlanishi.
3.8	<b>XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jahon tarixida madaniy hayot.</b> Moddiy ishlab chiqarishda texnika va fan taraqqiyoti. Aniq va tabiiy fanlar rivoji. Xalq ta'limi. Gumanitar fanlar. San'at. Adabiyot.
3.9	<b>XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida O'zbekistonda madaniy hayot.</b> XIX asr o'rtalarida O'рта Osiyo aholisining madaniy hayoti. XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida qoraqalpoqlar madaniyati. Jadidchilik harakatining Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga ta'siri. Ta'lim tizimi. Matbuot. Turkistonda ilm-fan taraqqiyoti. Teatr va musiqa san'ati. Me'morchilik va tasviriy san'at.
3.10	<b>O'zbekiston tarixi 1917 – 1991-yillarda.</b> O'zbekistonda sovet hokimiyati yuritgan madaniy siyosat. O'zbekiston fani va madaniyati – g'alaba uchun xizmatda.
3.11	<b>Eng yangi tarix.</b> 1918 – 1939-yillarda ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi, ilm-fandagi yutuqlar. SSSRda madaniy inqilobning amalga oshirilishi. XX asrning ikkinchi yarmida fan va madaniyatning rivojlanishi. XX asrning oxiri – XXI asr boshlarida ilmiy-texnik taraqqiyot. Ilm-fan, adabiyot va san'at.
3.12	<b>Mustaqillik davrida O'zbekistonning madaniy hayoti.</b> O'zbekistonda konfessiyalararo munosabatlar, O'zbekistonda ma'naviy va tarixiy merosning tiklanishi, O'zbekistonda madaniyat va san'at.
<b>4. Amaliy topshiriqlar</b>	
4.1	Mantiqiy fikrlash, tushunish, bajara olish qobiliyati va ta'limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, kompetensiyaga asoslangan test topshiriqlari (xarita, jadvallar, diagrammalar va b.)

**Tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi  
(majburiy)**

<b>Kodi</b>	<b>Fan mazmuni tarkibi</b>
1	<b>O'zbekiston tarixi</b>
1.1.	<b>Qadimgi davr</b>
	Qadimgi tarix taraqqiyotining boshlanishi. Eng qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari. Urug'chilik jamiyati. Eneolit va bronza davri. Temir davriga o'tishda O'рта Osiyoning rivojlanishi. O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar. Zardushtiylik. O'рта Osiyoga Ahamoniylarning bosqinchilik yurishlari. O'рта Osiyo xalqlarining yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurashi. Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi. Qadimgi Xorazm, Qang', Davan. Qadimgi Kushon podsholigi. Buyuk Ipak yo'li.
1.2.	<b>O'рта asrlar tarixi</b>
	Ilk o'рта asrlarda O'рта Osiyoda yuz bergan ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar. Ilk o'рта asr davlatlari (Xorazm, Xioniylar va Kidariylar). Eftallar davlati. Eftallar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. O'рта Osiyo xalqlari Turk xoqonligi davrida. G'arbiy Turk xoqonligi. Mahalliy hokimliklarning tashkil topishi. VI – VII asrlarda madaniy hayot. Movarounnahrda arab xalifaligining o'rnatilishi.



	<p>Movarounnahrda islom dinining yoyilishi. Xalifalikka qarshi xalq noroziligi. Abbosiylar davrida Xuroson va Movarounnahr. Qarluqlar, O'g'uzlar, Tohiriylar. Somoniylar. Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. G'aznaviylar. Qoraxoniylar. Xorazm davlati va uning yuksalishi. Xorazmshoh va Chingizxon munosabatlari. Muhammad Xorazmshohning mamlakat mudofaasiga oid tadbirlari va uning oqibati. Jaloliddin Manguberding Xorazm taxtiga o'tirishi. Jaloliddin Manguberdi mohir sarkarda. Jaloliddin Manguberdi – Vatan qahramoni. Chig'atoy ulusining tashkil topishi. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Etnik jarayonlar va o'zbek xalqining shakllanishi. Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayoti. Adabiyot. Diniy bilimlarning rivojlanishi. Me'morchilik, san'at va musiqa. XIV asrning o'rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Amir Temur – markazlashgan davlat asoschisi. Amir Temur saltanatining tashkil topishi. Amir Temurning tashqi siyosati. Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'рни. Temuriylar davridagi siyosiy jarayonlar. Mirzo Ulug'bekning hukmronligi davrida Movarounnahr. Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va bunyodkorlik. Ta'lim tizimi. Aniq fanlarning rivojlanishi. Adabiyot. Tasviriy san'at</p>
1.3.	<p><b>O'zbekiston XVI-XIX asr o'rtalarida (xonliklar davri)</b></p> <p>Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyat. Movarounnahr va Xurosonda siyosiy vaziyat. Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shayboniyxon munosabatlari. Movarounnahr va Xurosonda shayboniylar hukmronligining o'rnatilishi. Buxoro xonligining tashkil topishi. Abdullaxon II davrida Buxoro xonligining yuksalishi. Buxoro xonligida ashtarxoniylar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi. Buxoro xonligida markaziy hokimiyatning zaiflashuvi. Buxoro xonligida davlat boshqaruvi. Buxoro xonligida harbiy ish. Buxoro xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Buxoro xonligining tashqi siyosati. Buxoro xonligida madaniy hayot. Buxoro amirligining tashkil topishi. Amirlikda markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi. Buxoro amirligida davlat boshqaruvi. Buxoro amirligida harbiy ish. Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Amirlik shaharlari. Ichki va tashqi savdo. Buxoro amirligining tashqi siyosati. Buxoro amirligida madaniy hayot. Xiva xonligining tashkil topishi. XVII – XVIII asrning birinchi yarmida xonlikdagi siyosiy ahvol. Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi. XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida xonlikning siyosiy ahvoli. Xiva xonligida davlat boshqaruvi. Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Shaharlar hayoti. Xiva xonligining tashqi siyosati. Xiva xonligida madaniy hayot. Xiva xonligi tarixi bo'yicha manbalar. XVI – XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar. Qoraqalpoqlarda madaniy va ma'naviy hayot. Qo'qon xonligining tashkil topishi. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligida siyosiy ahvol. Qo'qon xonligida davlat boshqaruvi. Qo'qon xonligida harbiy ish. Qo'qon xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Qo'qon xonligining tashqi siyosati. Qo'qon xonligida madaniy hayot. Qo'qon xonligida ta'lim. O'zbek davlatlarining taraqqiyotda orqada qolish sabablari va oqibatlari.</p>
1.4.	<p><b>O'zbekiston tarixi XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida (Rossiya bosqini davri)</b></p> <p>XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo davlatlarining hududi va aholisi. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ma'muriy boshqaruv tizimi. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayoti. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlarining boshlanishi. Toshkentning bosib olinishi. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi. Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlarning boshlanishi. Buxoro amirligi ustidan Rossiya imperiyasi protektoratining o'rnatilishi. Xiva xonligi ustidan Rossiya imperiyasi</p>

	<p>protektoratining oʻrnatilishi. Qoʻqon xonligining bosib olinishi. Turkiston general-gubernatorligining siyosiy-maʼmuriy boshqaruv tizimi. Turkiston oʻlkasida Rossiya imperiyasining yer-suv siyosati. Turkistonda sud tizimining tashkil etilishi. Turkistonda harbiy-politsiya tartibotining oʻrnatilishi. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Turkistonda milliy ozodlik harakatlarining boshlanishi va uning sabablari. Toshkentda “vabo isyoni”. Andijon qoʻzgʻoloni. Milliy ozodlik harakatlarining ahamiyati. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida qoraqalpoqlarning hududiy joylashuvi va ijtimoiy hayoti. Soliq va majburiyatlar. Xalq qoʻzgʻolonlari. Qoraqalpoqlar Turkiston general-gubernatorligi tarkibida. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida qoraqalpoqlar madaniyati. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi. Jadidlar: dasturiy maqsad va vazifalari. Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati. Jadidchilik harakatining Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga taʼsiri. Birinchi jahon urushining boshlanishi va uning Turkistonga taʼsiri. Turkistonda 1916-yilgi qoʻzgʻolonlarning boshlanishi. Jizzax qoʻzgʻoloni. Turkistonda 1916-yilgi voqealarning oqibatlari va ahamiyati. Buxoro amirligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Yosh buxoroliklar faoliyati va Buxoro amirligining tugatilishi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Xiva xonligining tugatilishi. Taʼlim tizimi. Matbuot. Turkistonda ilm-fan taraqqiyoti. Teatr va musiqa sanʼati. Meʼmorchilik va tasviriy sanʼat.</p>
1.5.	<p style="text-align: center;"><b>Oʻzbekiston 1917 – 1991-yillarda</b></p> <p>Turkiston oʻlkasi 1917-yil fevral-oktyabr oraligʻida. Turkistonda sovet hokimiyatining majburiy tarzda oʻrnatilishi hamda bolsheviklar diktaturasi. Turkiston Muxtoriyati – tub yerli xalqlar davlatchiligi tarixida yangi bosqich. Turkiston oʻlkasida Sovet hokimiyati boshqaruv tizimining tuzilishi va iqtisodiyot sohasidagi oʻzgarishlar. Turkiston ASSRda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar. Buxoro amirligida islohotlar uchun kurash hamda qizil armiya tomonidan amir hokimiyatining agʻdarilishi. BXSRRning tashkil topishi va faoliyati. Xiva xonligidagi ahvol hamda xon hokimiyatining agʻdarilishi. XXSRning tuzilishi va turli islohotlar. BXSRR va XXSRda qizil armiyaga qarshi kurash. Oʻrta Osiyo respublikalarida oʻtkazilgan milliy-hududiy chegaralanish va uning oqibatlari. Oʻzbekiston SSRning tashkil topishi. Oʻzbekistonda qishloq xoʻjaligini kollektivlashtirish siyosati hamda quloqlarning surgun qilinishi. Oʻzbekistonda industrilashtirish siyosatining amalga oshirilishi va kadrlar masalasi. Oʻzbek xotin-qizlarining ozodlikka chiqarish jarayoni va muammolar. Oʻzbekistonda sovet hokimiyati yuritgan madaniy siyosat. Sovet hokimiyatining Oʻzbekistondagi qatagʻonlik siyosati: uning mohiyati va oqibatlari. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi hamda Oʻzbekistonning urush girdobiga tortilishi. Oʻzbekiston sanoati va qishloq xoʻjaligi front xizmatida. Oʻzbekistonliklarning frontdagi jasorati va qahramonliklari. Oʻzbekiston fani va madaniyati – gʻalaba uchun xizmatda. Oʻzbekiston xalq xoʻjaligining urushdan keyingi ahvoli. Ziyolilarning qatagʻon qilinishi va sovet jamiyatida shaxsga sigʻinishning fosh qilinishi. Oʻzbekistonda sanoatning bir tomonlama rivojlanishi. Oʻzbekistonning siyosiy hayotidagi oʻzgarishlar hamda Sovetlarning partiya organlariga qaramligi. Oʻzbekistonda yoqilgʻi va togʻ-kon sanoatining vujudga keltirilishi hamda aholi milliy tarkibidagi oʻzgarishlar. Oʻzbekistonda ekologik vaziyatning ogʻirlashuvi va Orol fojiasi. Oʻzbekistonda paxta ishi va uning oqibatlari. Qayta qurish siyosati va uning inqirozi. Fargʻona fojialari. Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.</p>
1.6.	<p style="text-align: center;"><b>Oʻzbekiston 1991-yildan keyingi yillarda</b></p> <p>Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining qoʻlga kiritilishi. Oʻzbekiston Respublikasi milliy davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi. Fuqarolik</p>

	<p>jamiyati g'oyasining rivojlanish tarixi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishining asosiy bosqichlari va istiqbollari. O'zbek modelining ishlab chiqilishi. Iqtisodiy islohotlarning boshlanishi. Mamlakat ishlab chiqarish salohiyatining oshirilishi va jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi. Ijtimoiy siyosat va uning amalga oshirilish bosqichlari. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. O'zbekistonda konfessiyalararo munosabatlar. Umumiy va o'rta maxsus ta'lim tizimi. Oliy ta'lim va undan keyingi ta'limning takomillashtirilishi. O'zbekistonda ilm-fan. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi. O'zbekistonda yoshlar siyosati. O'zbekistonda ma'naviy va tarixiy merosning tiklanishi. O'zbekistonda madaniyat va san'at. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining shakllanishi va uning ustuvor yo'nalishlari. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro hamkorligi. O'zbekiston Respublikasining Rossiya, Xitoy va AQSh bilan o'zaro munosabatlari. O'zbekistonning Yaponiya, Hindiston va Koreya Respublikasi bilan ikki tomonlama aloqalarining rivojlanishi. O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasidagi faoliyati va tinchlikparvar tashqi siyosati. O'zbekistonning mintaqaviy tashkilotlar doirasida ko'p tomonlama hamkorligi.</p>
--	---

### 5. Tarix faniga oid kognitiv ko'nikma darajasi

1.	quyi kognitiv daraja	Tarix fanidan o'rgangan ma'lumotlarni eslab qolish, tarixiy faktlarni, voqea va jarayonlarni tushunish va qo'llash.
2.	yuqori kognitiv daraja	Egallangan bilim asosida tanish va notanish sharoitda berilgan topshiriqni analiz va sintez qilish (siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, voqealar izchilligini bilish, farqlay olish, xarita, grafik va diagrammalar bilan ishlay olish).

### 6. Tarix fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar

Tarix faniga oid test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda amaldagi davlat ta'lim standartlari va O'zbekiston tarixi fani umumta'lim o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilab ko'rsatilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida qaraldi.

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar	Kodi
Tarix	<p>Tarixiy voqealarni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi</p> <p>Tarixiy davrlar, yil hisobi, ijtimoiy tuzumlar, ularning atalishi va ularga xos xususiyatlar, davlatlarning tashkil topishi, xaritada joylashgan o'rni, hududi, aholisi, boshqaruv tartiblari, tarixiy shaxslar, voqea va jarayonlarni bilish, tahlil qila olish; tarixiy voqealarni bir-biri bilan o'zaro bog'liqligini aniqlay olish, tarixiy voqealarni to'g'ri baholay olish, tarixiy davrlarni bir-biridan farqlay olish, tarixiy voqealar va ularning natijasini mantiqan bog'lay olish, tarixiy voqealarni mantiqiy davomiylikda to'g'ri qo'ya olish, tarixiy voqealar va ular yuz bergan tarixiy davrni taqqoslash va farqlay olish.</p>	1.1.1

		Ijtimoiy tuzum taraqqiyotini bilish, eng qadimgi davrdan hozirgi kunga qadar yuz bergan ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar (ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar, tuzumlar, sivilizatsiyalarning vujudga kelishi, yer egaligi shakllari, soliqlar, islohotlar, savdo aloqalari, manufakturalarning paydo bo'lishi, sanoat jamiyatining vujudga kelishi va boshqalar)ni bilish, tahlil qilish, farqlay olish, taqqoslay olish, baholash.	1.2.1
	Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi	Eng qadimgi davrdan bugungi kunga qadar kechgan umumiy madaniy tendensiyalarni bilish, dunyo xalqlari madaniyati haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish, madaniy jarayonlarni tahlil qila olish, baholash, ma'lum bir tarixiy madaniy makonda yuz bergan madaniy jarayonlarni, insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasini bilish, tahlil qilish va baholash, turli madaniy jarayonlarni o'zaro qiyoslash va xulosa qilish.	2.1.1
		Xaritali test topshirig'i: tarixiy geografik makon haqida ma'lumotga ega bo'lish, tarixdan olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish. Jadvalli test topshirig'i: tarixiy voqea mohiyatini to'g'ri tushunish va uning natijasini to'g'ri baholash, farqlash va xulosa qilish. Mantiqiy ketma-ketlik: tarixiy voqelikni tushunish va uni mantiqiy izchilligini topish orqali tahlil qilish va xulosa chiqarish. Eyler-Venn diagrammasi: tarixiy voqea mohiyatini tushunish, o'xshash va farqli jihatlarini topish orqali o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish.	2.2.1

**\*Izoh:** Mazkur hujjatga aprobatsiya natijalari hamda vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli qaror va buyruqlariga asosan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.